



O ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
ILMIY-INNOVATSION VA SINOV-TADQIQOT
INSTITUTI

FAVQULODDA VAZIYATLAR
YONG'IN XAVFSIZLIGI



MUAMMO
INNOVATSIYALAR

ILMIY-TEXNIK ELEKTRON JURNAL

ISSN:
3060-5016



2026
1-son (4)



E-mail: niipb@fvv.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**

**ILMIY-INNOVATSION VA SINOV-TADQIQOT
INSTITUTI**

ISSN: 3060-5016



**“FAVQULODDA VAZIYATLAR VA YONG‘IN XAVFSIZLIGI.
MUAMMO VA INNOVATSIYALAR”
ILMIY-TEXNIK ELEKTRON
JURNAL**

**“ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ СИТУАЦИИ И ПОЖАРНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ.
ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИИ”
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ
ЖУРНАЛ**

**“EMERGENCIES AND FIRE SAFETY.
PROBLEMS AND INNOVATIONS”
SCIENTIFIC AND TECHNICAL ELECTRONIC
JOURNAL**

**“AYRIQSHA JAG‘DAYLAR HAM ORT QAWIPSIZLIGI.
MASHQALA HAM INNOVATSIYALAR”
ILM-TEXNIK ELEKTRON
JURNAL**

TOSHKENT – 2026

<p align="center">FAVQULODDA VAZIYATLAR VA YONG'IN XAVFSIZLIGI. MUAMMO VA INNOVATSIYALAR</p>	<p align="center">Bosh muharrir: A.A.Suleymanov <i>Texnika fanlari doktori (DSc), professor</i></p>
<p align="center">ILMIY-TEXNIK JURNAL 2026-yil 1-son (№ 4)</p>	<p align="center">Bosh muharrir o'rinbosari: Sh.E.Kurbanbayev <i>Texnika fanlari doktori(DSc), professor</i></p>
<p align="center">Bir yilda 2 marta 2024-yildan buyon chop etiladi</p>	<p align="center">Mas'ul kotib: M.S.Saidov <i>Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), k.i.x.</i></p>
<p align="center">Muassis - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti</p>	<p align="center">Texnik muharrir: D.S.Soatboyev <i>Ilmiy xodim</i></p>
<p align="center">Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydalanilganda "Favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi. Muammo va innovatsiyalar" ilmiy-texnik jurnalidan olindi deb ko'rsatalishi shart.</p>	<p>TAHRIRIYAT HAY'ATI A'ZOLARI: S.M. Djurayev – t.f.f.d., professor Ye .V. Shipacheva – t.f.d., professor O.M. Yo'ldosheva – t.f.d., professor B.B. Serkov – t.f.d., professor Sh.S. Fayzibayev – t.f.d., professor Y.V. Pesetskiy – t.f.d., professor N.Y. Mahkamov – t.f.f.d., professor B.B. Xasanov – t.f.d., professor O.O. Zaripov – t.f.d., professor I.I. Siddikov – t.f.d., professor M.B. Aripxodjayeva – t.f.f.d., dotsent I.X. Kuldashev – t.f.f.d, dotsent G.M. Gulomova – t.f.f.d, dotsent O.A. Djurayev – t.f.f.d Z.K. Buvaraimov – t.f.f.d, k.i.x. B.B. Muxitdinov – t.f.f.d, k.i.x. Sh.M. Abdullayev – h.f.f.d A.A. Mardonov – t.f.f.d. B.B. Chorshanbiyev – h.f.f.d N.A. Ahmadjonova – p.f.f.d D.A. Hamrayeva – b.f.f.d.</p>
<p align="center">Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.</p>	
<p align="center">O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi OAK Rayosatining 2025-yil 8-avgustdagi № 374/5-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan</p>	
<p align="center">Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2024-yil 26-iyunda № 306589 raqamli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.</p>	<p>Tahririyat manzili: 100017, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sharof Rashidov ko'chasi, 17-uy Tel: 71 212-68-69. Havola: https://gov.uz/oz/fvv/pages/jurnal E-mail: ilmiytadqiqot11@gmail.com Telegram kanali: https://t.me/ilmiy_texnik_elektron_jurnal</p>

MUNDARIJA

DOLZARB MUAMMOLAR		
“Aviator” savdo majmuasida sodir bo‘lgan yong‘in haqida		5
“Lobar baki” MChJga qarashli qurilish mollari bozori hududida sodir bo‘lgan yong‘in haqida		6
ILMIY-TADQIQOT VA ISHLAR		
Mardonov A. Vaxobov D. Primov J.	O‘zbekiston sharoitida radiatsion razvedkani differensial yondashuv asosida takomillashtirish	7
Миршарипова З.М. Арипходжаева М.Б. Сулейманов А.А. Отабекова Л.А.	Детекция зоны наиболее интенсивного горения мультимодальным анализом аспирационных потоков и физиологических параметров спасателя	15
Yo‘ldosheva O. Xamidullayev F.	Yangi issiqbardosh qo‘lqop asosida yong‘in profilaktika choralarini takomillashtirish	32
Xamidullayev F.	Kollagen asosida ishlov berilgan issiqbardosh qo‘lqopning yong‘in-texnik va ergonomik samaradorligi	37
Zokirova N.S. Xojiev A.A. Yo‘ldosheva O.M.	Nasos stansiyalarida payvandlash ishlarining yong‘in xavfsizligini ta‘minlash	41
Sharopitdinov B.	Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda dronlarni qo‘llash bo‘yicha xalqaro tajribaning tahlili	47
Kuldashev I.X. Bozorov A.A. Isomiddinov S.N.	Obyekt xavfsizligi tizimlarida adaptiv fazoviy-temporal axborot modeli asosida videooqiqlarda shovqinga uchragan piksellarni intellektual aniqlash	52
Писецкий Ю.В. Вотинов К.А. Гафуров А.Ш.	Системы дистанционного мониторинга на основе сенсорных сетей применимых при ЧС	63
Ҳамраева Д.А. Мардонов А.А.	Ўсимликларнинг экологияга таъсири ва уларнинг фавқулудда вазиятларни олдини олишдаги аҳамияти	70
Писецкий Ю.В. Вотинов К.А. Абдурахманова З.Ш.	Алгоритмы маршрутизации в мега-созвездиях LEO-спутников для задач мониторинга чрезвычайных ситуаций	76

Арипходжаева М. Сирождиддинходжаев Б.	Развитие и применение современных авиационных технологий в условиях чрезвычайных ситуаций	86
Алиходжаев З.З. Садиков Р.М.	Ёнғин-қутқарув техникаларининг эксплуатация даврини рақамлаштириш: инновацион ёндашувлар, рақамли паспорт тизими ва прогнозли бошқарув модели	97
Курбанбаев Ш.Э. Соатбоев Д.С.	Фавқулодда вазиятларни бартараф этишда махсус техникалар ва робототехникалар самарадорлигининг қиёсий ва иқтисодий таҳлили	104
Писецкий Ю.В. Мухамедаминов А.О.	Система беспроводного газового мониторинга для предотвращения чрезвычайных ситуаций и соблюдения промышленной безопасности	109
Kuldashev I.X.	Metropolitan platformalarida intellektual xavfsizlik to'rsiqlarini joriy etishning zamonaviy tendensiyalari va muhandislik-texnik yechimlari	119
Achilov F.B. Jalolov A.A.	Ommaviy tartibsizliklar sharoitida toifalangan obyektlarning intellektual texnik himoya tizimlarini adaptiv boshqarish algoritmlarini takomillashtirish	126
JURNALGA MAQOLALARNI TAQDIM ETISH TALABLARI		
Jurnalga maqolalarni taqdim etish talablari		132

DOLZARB MUAMMOLAR HAQIDA QISQACHA


2026-yilning 31-yanvar kunda Toshkent shahar Yashnaobod tumani, Elbek ko'chasi 61-uyda joylashgan "Aviator" savdo majmuasida yong'in sodir bo'lgan. Jangavor bo'linmalar tomonidan ko'rilgan chora va tezkor harakatlar natijasida yong'in to'liq bartaraf etilgan.

Yong'in oqibatida savdo majmuasining 2-qavatida joylashgan bolalar o'yingohining tom qismi qulab tushib, ichki jihozlari to'liq yonib, 1 nafar fuqaro halok bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, "Aviator" savdo majmuasi binosining 2-qavatida joylashgan bolalar o'yingohidagi elektr kabellarida yuzaga kelgan (qisqa tutashuv) avariya holatlar natijasida yong'in kelib chiqqan.

Ushbu holatdagi dolzarb muammolar:

- savdo majmuasi binosidagi kabellari va elektr ta'minoti tizimi doimiy ko'zdan kechirilmaganligi;
- ayrim joylardagi notog'ri yoki ishonchli montaj qilinmaganligi;
- yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilinmaganligi va boshqalar.



Holat sodir bo'lgan "Aviator" savdo majmuasi ko'rinishi.

2026-yilning 21-fevral kuni Toshkent shahar, Uchtepa tumani, “Foziltepa” MFY, Izza ko‘chasi 79-uyda joylashgan “Lobar baki” MChJga qarashli qurilish mollari bozori hududida yong‘in sodir bo‘lgan. Jangavor bo‘linmalar tomonidan ko‘rilgan chora va tezkor harakatlar natijasida yong‘in to‘liq bartaraf etilgan.

Yong‘in oqibatida “Lobar baki” MChJga qarashli 17-sonli bostirma ostidagi ijarada bo‘lgan 9 ta tadbirkorlarga tegishli 15 savdo rastalari yong‘indan zararlangan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, savdo rastalaridan o‘tkazilgan elektr tizimidagi yuzaga kelgan avariya (qisqa tutashuv) natijasida, ajralib chiqqan uchqun yonuvchi mahsulotlar (mato, paxta momig‘i)ga tushib yong‘in kelib chiqqan.

Ushbu yong‘indagi dolzarb muammolar:

- Bozor hududidagi savdo rastalari va yo‘laklardagi elektr kabellar tranzit olib o‘tilganligi;
- ayrim joylarda ular yonuvchan plastic va alyumin kompozit panellarning ichdan montaj qilib o‘tkazilganligi;
- yong‘in boshlangan joydagi elektr tarqatish qutilaridagi simlar tartibsiz montaj qilinganligi;
- yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat‘iy amal qilinmaganligi va boshqalar.



“Lobar baki” MChJga qarashli qurilish mollari bozorining ko‘rinishi

UO‘K: 614.876

Mardonov A. t.f.f.d.(PhD), Vaxobov D., Primov J.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RADIATSION RAZVEDKANI DIFFERENSIAL
YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston sharoitida favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedkani takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda radiatsion xavf obyektlarining kelib chiqishi, joylashuvi va oqibatlari turlicha bo‘lishi sababli razvedkani yagona andoza asosida tashkil etish yetarli samara bermasligi asoslab berilgan. Shu asosda radiatsion xavf obyektlari guruhlashtirilib, ular uchun ustuvor razvedka vazifalari belgilandi. Shuningdek, razvedka pasportlari, kuzatuv marshrutlari hamda dala o‘lchovlari, dozimetrik nazorat va doza baholashni o‘zaro bog‘laydigan ko‘p bosqichli operatsion model taklif etilgan. Tadqiqot natijalari radiatsion razvedkani obyektga mos samarali boshqaruv vositasi sifatida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: radiatsion razvedka, favqulodda vaziyatlar, differensial yondashuv, radiatsion xavf obyektlari, radiatsiyaviy xavfsizlik, doza baholash, monitoring, boshqaruv qarorlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос совершенствования радиационной разведки при чрезвычайных ситуациях в условиях Узбекистана. В исследовании обосновано, что ввиду различий в происхождении, расположении и возможных последствиях аварий на радиационно-опасных объектах, организация разведки на основе унифицированного подхода является недостаточно эффективной. На этой основе проведена классификация радиационно-опасных объектов и определены приоритетные задачи разведки для каждой из групп. Кроме того, предложена многоэтапная операционная модель, взаимосвязывающая паспорта разведки, маршруты наблюдения, полевые измерения, индивидуальный дозиметрический контроль и оценку доз облучения. Результаты исследования способствуют трансформации радиационной разведки в эффективный инструмент управления, адаптированный к специфике конкретного объекта.

Ключевые слова: радиационная разведка, чрезвычайные ситуации, дифференциальный подход, радиационно-опасные объекты, радиационная безопасность, оценка доз облучения, мониторинг, управленческие решения.

Annotation: This article examines the issue of improving radiation reconnaissance during emergencies in the context of Uzbekistan. The study substantiates that organizing reconnaissance based on a unified template is insufficiently effective due to the diverse origins, locations, and potential consequences of radiation-hazardous facilities. On this basis, radiation-hazardous facilities were classified, and priority reconnaissance tasks were determined for them. Furthermore, a multi-stage operational model is proposed, which interconnects reconnaissance passports, observation routes, and field measurements, dosimetric control, and dose assessment. The research results contribute to improving radiation reconnaissance as an effective management tool tailored to the specific facility.

Keywords: radiation reconnaissance, emergencies, differential approach, radiation-hazardous facilities, radiation safety, dose assessment, monitoring, management decisions.

Zamonaviy favqulodda vaziyatlar tizimida radiatsion xavf bilan bog‘liq hodisalarga tezkor va asosli javob berish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida” gi Qonunida insonlar hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulki hamda tabiatni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta‘siridan himoyalash, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy maqsadi sifatida

belgilangan [1]. Shu bois favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedka vaziyatni aniqlash va to'g'ri baholash, xavfli hudud chegaralarini belgilash hamda himoya choralari ko'rishga doir boshqaruv qarorlarini zaruriy axborot bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim amaliy faoliyat turi hisoblanadi [4; 6; 10]. Radiatsion favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va javob tizimini samarali tashkil etishda xalqaro metodik yondashuvlar xavfni oldindan baholashga tayangan rejalashtirishga alohida ahamiyat qaratgan. Xususan, Xalqaro atom energiyasi agentligining yadro va radiologik favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik hamda javob bo'yicha umumiy xavfsizlik talablarini belgilovchi GSR Part 7 standartida favqulodda vaziyat yuzaga kelishidan oldin vakolatlarni aniq belgilash, xavfni baholash va himoya strategiyasini ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tilgan [5]. IAEA ning GSG-2 umumiy xavfsizlik qo'llanmasida esa himoya va javob choralari tanlashda qo'llanadigan radiatsion doza mezonlari hamda operativ qarorlar uchun asos bo'ladigan ko'rsatkichlar belgilab berilgan [7]. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining O'zbekiston bo'yicha Joint External Evaluation missiya hisobotida mamlakatimizda radiatsion favqulodda vaziyatlarga javob berish bo'yicha muayyan salohiyat mavjudligi qayd etilgan bo'lsa-da, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va tegishli texnik imkoniyatlarni yanada takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan [8]. Bu holat O'zbekiston sharoitida radiatsion razvedkani faqat dala o'lchovlari emas balki uni doza baholash va tezkor boshqaruv qarorlari bilan uzviy bog'liq amaliy mexanizm sifatida takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy va metodik asoslar radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash, monitoringni yo'lga qo'yish hamda favqulodda vaziyatlarga samarali javob berish uchun umumiy tayanch hisoblanadi [1; 3; 5; 7; 8]. Biroq, O'zbekiston sharoitida radiatsion xavf obyektlarining zarar xususiyatlari turlicha ekanligini inobatga olsak, barcha obyektlarda radiatsion razvedkani bir xil tartibda tashkil etish amaliy samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Natijada, dala o'lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash hamda tezkor boshqaruv qarorlarini yagona va izchil operatsion tizimga integratsiyalash murakkablashadi. Ayniqsa, sobiq uran merosi hududlari, faol uran qazib olish maydonlari, radioaktiv chiqindilar saqlanadigan obyektlar hamda tarqoq nurlanish manbalari uchun razvedka vazifalarini obyekt xususiyatiga mos ravishda belgilash zarurati yanada ortadi [9; 10]. Shu bois, radiatsion xavf obyektlarini toifalash, ular uchun razvedka pasportlari, standart kuzatuv marshrutlari hamda tezkor qaror qabul qilish mezonlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedkani obyekt xususiyatiga mos, differensial yondashuv asosida takomillashtirish uchun, avvalo, radiatsion xavf obyektlari, ularning joylashuvi va ehtimoliy oqibatlariga ko'ra guruhlash zarur. Mazkur guruhlash asosida har bir obyekt toifasi uchun razvedka vazifalari hamda kuzatuv marshrutlari aniqlashtiriladi. Shu bilan birga, dala o'lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va tezkor boshqaruv qarorlarini o'zaro uzviy bog'laydigan operatsion modelni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, ushbu yondashuv radiatsion razvedkani umumiy nazorat

tadbiri darajasidan aniq obyekt turiga moslashtirilgan, samarali amaliy boshqaruv vositasi darajasiga olib chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Radiatsion razvedkani takomillashtirish, eng avvalo, mavjud milliy normativ-huquqiy baza bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan aholi, mol-mulk va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi [1]. Shu bilan birga, "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun xavfli obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash, avariya xavfini kamaytirish va tegishli talablarni belgilash orqali umumiy huquqiy asosni mustahkamlaydi [2]. Mazkur yondashuv Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-oktabrdagi 869-son qarorida davom ettirilib, unda radiatsiyaviy avariylarni prognoz qilish, ularni barvaqt aniqlash va radiatsiyaviy vaziyat monitoringini tashkil etishga qaratilgan yagona davlat tizimining asosiy vazifalari belgilab berilgan [3]. Bundan tashqari, 2014-yil 9-iyuldagi 184-son qarorda favqulodda vaziyat hududida radiatsion holatni aniqlash hamda uning chegaralarini belgilash qutqaruv ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [4]. Shunday qilib, ushbu normativ-huquqiy hujjatlar radiatsion xavfsizlikni ta'minlash va radiatsion razvedkani tashkil etishning umumiy huquqiy hamda tashkiliy asoslarini izchil ravishda shakllantiradi. Biroq, ularning mazmunida radiatsion razvedkani turli obyektlarning o'ziga xos xususiyatlariga mos holda differensial tashkil etish mexanizmlari yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi kuzatiladi.

Xalqaro metodik adabiyotlarda radiatsion razvedkaga alohida texnik tadbir sifatida emas, balki favqulodda vaziyatni baholash, himoya choralarini tanlash va javob choralarini ko'rishga qaratilgan yaxlit operatsion jarayon sifatida tavsiflanadi. Jumladan, Xalqaro atom energiyasi agentligining yadro va radiologik favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik hamda javob berishga oid umumiy xavfsizlik talablari - "GSR Part 7" hujjatida tayyorgarlik va javob choralarini xavfni oldindan baholash asosida rejalashtirish zarurligi belgilangan [5]. Ushbu yondashuv IAEA ning radiologik favqulodda vaziyatlarda birinchi javob beruvchilar uchun mo'ljallangan amaliy qo'llanmasida ham davom ettirilib, unda favqulodda vaziyatning dastlabki bosqichida bajariladigan harakatlar, joyida baholash, nazorat o'lchovlari va dastlabki himoya choralarining mazmuni batafsil yoritilgan [6]. Shuningdek, IAEA ning himoya va javob choralarini qo'llash mezonlariga bag'ishlangan "GSG-2" umumiy xavfsizlik qo'llanmasida radiatsion doza bilan bog'liq umumiy mezonlar hamda operativ qarorlar qabul qilish uchun zarur ko'rsatkichlar tizimlashtirilgan [7]. Shunday qilib, xalqaro metodik manbalarda radiatsion razvedka oddiy o'lchovlar yig'indisi emas, balki vaziyatni baholashdan tortib himoya choralarini tanlashgacha bo'lgan uzluksiz operatsion jarayon hisoblanadi. Biroq, ushbu yondashuvlar asosan umumiy metodik darajada bo'lib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, xususan radiatsion xavf obyektlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda differensial model shaklida takomillashtirish zaruratini talab etadi.

Amaliy-metodik adabiyotlar orasida “Справочник спасателя. Книга 7. Спасательные работы по ликвидации последствий радиоактивных загрязнений” alohida o‘rin tutadi [10]. Ushbu qo‘llanmada radiatsion avariya oqibatlarini bartaraf etishda radiatsion razvedka, dozimetrik nazorat, qutqaruv ishlarini tashkil etish, dezaktivatsiya hamda boshqaruvga oid ma‘lumotlar mavjud [10]. Shu jihatdan u radiatsion razvedkaning amaliyotda qutqaruv bo‘linmalarida foydalanishga yordamchi manba ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli undan radiatsion razvedkaning amaliy jihatlarini yorituvchi qo‘shimcha metodik adabiyot sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar radiatsiyaviy xavfsizlikning huquqiy asoslarini, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va javobning xalqaro metodik yondashuvlarini hamda radiatsion razvedkaning ayrim amaliy jihatlarini turli darajada yoritadi [1–10]. Biroq mazkur manbalarda O‘zbekiston sharoitiga mos obyektlarni radiatsion xavf xususiyatiga xos guruhlash, ular uchun razvedka vazifalarini differensial belgilash, standart kuzatuv marshrutlarini ishlab chiqish hamda dala o‘lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va tezkor boshqaruv qarorlarini yagona operatsion tizimga birlashtirish masalasi yaxlit holda ochib berilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan ilmiy-amaliy jihatni tizimlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedkani O‘zbekiston sharoitiga mos differensial yondashuv asosida takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqildi. Tadqiqotning metodologik asosini me‘yoriy-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash, tizimlashtirish, funksional-tizimli yondashuv va umumlashtirish usullari tashkil etdi. Tadqiqot materiali sifatida radiatsiyaviy xavfsizlik, radiatsiyaviy avariyalarga tayyorgarlik, monitoring va qutqaruv ishlarini tartibga soluvchi milliy normativ-huquqiy hujjatlar [1–4], shuningdek, Xalqaro atom energiyasi agentligi va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining radiatsion favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik hamda javob berishga oid metodik materiallari [5–8] olindi. Ushbu manbalar asosida milliy va xalqaro yondashuvlarning umumiy hamda farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitidagi radiatsion xavf manbalari ularning kelib chiqishi, hududiy joylashuvi va ehtimoliy oqibatlariga ko‘ra guruhlashtirildi [9]. Mazkur tasnif asosida radiatsion razvedka dala o‘lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va tezkor boshqaruv qarorlari bilan bog‘liq operatsion jarayon sifatida ko‘rib chiqildi [5–7; 10]. Natijada radiatsion xavf obyektlari bo‘yicha razvedka vazifalarini differensial belgilash, standart kuzatuv marshrutlarini ishlab chiqish va tezkor qaror qabul qilishni takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy xulosalar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar: Tahlil O‘zbekiston sharoitida radiatsion xavf obyektlari kelib chiqishi, hududiy joylashuvi va ehtimoliy oqibatlariga ko‘ra sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi [9]. IAEA ning rasmiy ma‘lumotida, O‘zbekistonning ishlatilgan yoqilg‘ilarni boshqarish, radioaktiv chiqindilarni boshqarish xavfsizligi

Qo'shma konvensiyasi yuzasidan hisobotida sobiq uran merosi hududlari, uran qazib olish va qayta ishlash bilan bog'liq maydonlar, radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq infratuzilma, shuningdek tibbiyot, sanoat va ilmiy faoliyatda qo'llaniladigan nurlanish manbalari radiatsion xavf nuqtayi nazaridan muhim obyektlar sifatida qayd etilgan [9]. Hisobotda, jumladan, Chorkesar uchastkasining Toshkentdan 140 km sharqda joylashgani, ushbu hududda ifloslangan shaxta suvidan chorvachilik va sug'orishda foydalanish xavfi mavjudligi, Yangiobod hududi esa taxminan 5 000 gektar maydonni qamrab olishi hamda unda chiqindi jinslarining eroziya ta'sirida quyi oqimga ko'chishi ehtimoli borligi ko'rsatilgan [9]. Mazkur faktlar radiatsion xavf manbalarini yagona andoza asosida baholash va razvedka ishlarini barcha obyektlar uchun bir xil tartibda tashkil etish barcha holatlarda bir xil darajada samarali emasligini ko'rsatadi.

Aniqlangan farqlarni tizimlashtirish asosida tadqiqotda radiatsion xavf obyektlari radiatsion razvedka nuqtayi nazaridan to'rt guruhga ajratilishi 1-rasmda keltirilgan [2; 4; 5; 7; 8; 9].



1-rasm. O'zbekistonda radiatsion xavf obyektlarining to'rtta asosiy guruhi
(muallif ishlanmasi)

Mazkur tasnif milliy va xalqaro manbalarda aks etgan radiatsion xavf manbalari, ularning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda favqulodda vaziyatlarda javob choralariga oid yondashuvlarni umumlashtirish asosida shakllantirildi [3; 5; 7; 9]. Ushbu tasnif radiatsion razvedkani barcha obyektlar uchun bir xil tartibda tashkil etishdan ko'ra, uni obyektning kelib chiqishi, xavf mexanizmi va ehtimoliy oqibatiga mos ravishda rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi. Natijada har bir guruh bo'yicha ustuvor razvedka vazifalarini alohida belgilash uchun ilmiy-amaliy asos yaratildi.

Tasniflangan guruhlarda radiatsion razvedkaning ustuvor vazifalari obyekt xususiyatiga mos ravishda differensial belgilandi. Sobiq uran merosi hududlarida razvedkaning asosiy yo'nalishi radiatsion fonni aniqlash bilan cheklanmay, shaxta suvlari, eroziya jarayonlari, chiqindi jinslarining ko'chishi hamda suv oqimlari bo'ylab ifloslanish tarqalishi ehtimolini kuzatishni ham

qamrab olishi lozim [9; 10]. Faol uran qazib olish va qayta ishlash maydonlarida esa razvedka e'tibori texnologik uchastkalar, chiqindi saqlash joylari, radiatsion nazorat nuqtalari va ularga tutash hududlarga qaratilishi zarur [9; 10]. Radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq infratuzilmada ifloslanish hududining chegaralarini aniqlash, radiatsion vaziyatni tezkor baholash va himoya choralarini asoslash ustuvor ahamiyat kasb etadi [4; 6; 9]. Tarqoq ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bo'yicha esa manbani aniqlash, identifikatsiya qilish, izolyatsiya qilish hamda vakolatli tuzilmalar o'rtasida tezkor axborot almashinuvini yo'lga qo'yish birlamchi vazifa hisoblanadi [3; 6]. Shu tariqa radiatsion razvedka vazifalarini obyekt turiga mos belgilash uning aniqligi, tezkorligi va amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Radiatsion xavf obyektlari bo'yicha belgilangan ustuvor razvedka vazifalarini yagona operatsion zanjirga bog'lash maqsadida tadqiqotda radiatsion razvedkaning ko'p bosqichli modeli taklif etildi. Mazkur modelning birinchi bosqichi radiatsiyaviy vaziyat haqidagi dastlabki axborotni qabul qilish, hodisa turini aniqlashtirish hamda razvedka kuch va vositalarini xavf manbaiga mos ravishda yo'naltirishni qamrab oladi [3; 6]. Ikkinchi bosqichda joyning radiatsion holatini bevosita o'lchash, ifloslanish hududining chegaralarini aniqlash, nazorat nuqtalarini belgilash va zarur hollarda individual dozimetrik nazoratni amalga oshirish nazarda tutiladi [4; 6; 10]. Uchinchi bosqichda esa olingan natijalar doza mezonlari asosida baholanib, himoya choralarini tanlash hamda tezkor boshqaruv qarorlarini asoslash uchun amaliy xulosaga aylantiriladi [5; 7]. Shu tariqa radiatsion razvedka alohida o'lchovlar yig'indisi sifatida emas, balki dastlabki axborotni qabul qilishdan tortib boshqaruv qarorini asoslashgacha bo'lgan uzluksiz operatsion jarayon sifatida talqin 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. O'zbekistonda radiatsion razvedkaning ko'p bosqichli operatsion modeli (muallif ishlanmasi)

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston sharoitidagi radiatsion xavf obyektlari radiatsion razvedka ehtiyojlari nuqtayi nazaridan tizimli ravishda guruhlashtirildi, har bir guruh uchun ustuvor

razvedka vazifalari differensial tarzda belgilandi hamda dala o'lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va tezkor boshqaruv qarorlarini o'zaro bog'laydigan ko'p bosqichli operatsion model ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv radiatsion razvedkani umumiy kuzatuv tadbiri sifatida emas, balki aniq obyekt turiga moslashtirilgan amaliy boshqaruv mexanizmi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari mavjud normativ va metodik manbalarda alohida-alohida uchraydigan yondashuvlar O'zbekiston sharoitiga mos yagona sxemaga keltirganligi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil natijalari radiatsion xavf obyektlari turlicha bo'lgan sharoitda razvedka ishlarini oldindan standartlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Shu bois har bir obyekt guruhi uchun razvedka pasportlari, standart kuzatuv marshrutlari, ustuvor nazorat nuqtalari, qo'llaniladigan o'lchov vositalari tarkibi hamda qaror qabul qilish mezonlariga asoslangan amaliy qaror kartalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi [5; 6; 7; 9; 10]. Bunday yondashuv favqulodda vaziyatning dastlabki bosqichida razvedka guruhlarini tezkor yo'naltirish, vaqtdan yutish va olingan ma'lumotlarni boshqaruv qarorlariga izchil bog'lash imkonini beradi. Natijada radiatsion razvedka reaktiv kuzatuv chorasi darajasidan obyekt xususiyatiga mos, oldindan tayyorlangan va boshqaruvga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm darajasiga ko'tariladi.

Xulosa va takliflar: O'tkazilgan tadqiqot O'zbekiston sharoitida radiatsion xavf obyektlari kelib chiqishi, hududiy joylashuvi va ehtimoliy oqibatlariga ko'ra sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Shu sababli favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedkani yagona andoza asosida tashkil etish barcha obyektlar uchun ham yuqori samara beraolmasligi ko'rsatildi. Radiatsion razvedkani differensial yondashuv asosida tashkil etish vaziyatni aniqroq baholash, ustuvor nazorat nuqtalarini to'g'ri belgilash shu bilan bir qatorda boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini beraolishi ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalari radiatsion xavf obyektlarini guruhlash, ular uchun ustuvor razvedka vazifalarini differensial belgilash hamda dala o'lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va boshqaruv qarorlarini yagona operatsion zanjirga bog'lash zarurligini asoslab berdi. Mazkur yondashuv radiatsion razvedkani umumiy kuzatuv tadbiridan obyektga mos amaliy boshqaruv vositasiga aylantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, radiatsion razvedkani takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Radiatsion xavf obyektlari bo'yicha razvedka vazifalarini obyekt turiga mos differensial asosda belgilash, turli radiatsion xavf manbalari uchun ustuvor nazorat yo'nalishlarini aniq belgilash va razvedka ishlarini manzilli tashkil etish.

Har bir asosiy radiatsion xavf obyekt guruhi uchun razvedka pasportlari, standart kuzatuv marshrutlarini ishlab chiqish va dasturlash. Favqulodda vaziyatning dastlabki bosqichida razvedka ishlarini tezkor, tartibli va obyekt xususiyatiga mos tashkil etish uchun suniy entelekt texnologiyalarini qo'llash.

Radiatsion razvedka jarayonida dala o'lchovlari, individual dozimetrik nazorat, doza baholash va tezkor boshqaruv qarorlarini yagona operatsion mexanizmga bog'lash va tizimni avtomatlashtirish. Bu radiatsion razvedka natijalarining amaliy qiymatini oshiradi va himoya choralari asosli tanlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 31-avgustdagi 120-II-son Qonuni. Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentabrdagi O'RQ-57-son Qonuni. Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-oktabrdagi 869-son qarori. Radiatsiyaviy avariylarni prognoz qilish, barvaqt aniqlash va harakat qilish yagona davlat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 9-iyuldagi 184-son qarori. "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida
5. INTERNATIONAL ATOMIC ENERGY AGENCY. Preparedness and Response for a Nuclear or Radiological Emergency. IAEA Safety Standards Series No. GSR Part 7. Vienna: IAEA, 2015. 102 p. <https://www.iaea.org/publications/10905/preparedness-and-response-for-a-nuclear-or-radiological-emergency>
6. INTERNATIONAL ATOMIC ENERGY AGENCY. Manual for First Responders to a Radiological Emergency. Vienna: IAEA, 2006. <https://www.iaea.org/publications/7606/manual-for-first-responders-to-a-radiological-emergency>
7. INTERNATIONAL ATOMIC ENERGY AGENCY. *Criteria for Use in Preparedness and Response for a Nuclear or Radiological Emergency*. IAEA Safety Standards Series No. GSG-2. Vienna: IAEA, 2011. 91 p. <https://www.iaea.org/publications/8506/criteria-for-use-in-preparedness-and-response-for-a-nuclear-or-radiological-emergency>
8. World Health Organization. *Joint external evaluation of IHR core capacities of Uzbekistan: mission report, 16–20 May 2022*. Geneva: World Health Organization; 2023. Available from: <https://extranet.who.int/sph/sites/default/files/document-library/document/Uzbekistan%20-%20JEE%20-%202016-20%20May%202022.pdf>
9. Republic of Uzbekistan. Third National Report of the Republic of Uzbekistan on the Compliance with the Obligations of the Joint Convention on the Safety of Spent Fuel Management and on the Safety of Radioactive Waste Management. Eighth Review Meeting. 2024. 61 p. Available from: <https://www.iaea.org/sites/default/files/2025-08/uzbekistan-national-report-8rm-english.pdf>
10. Справочник спасателя. Книга 7: Спасательные работы по ликвидации последствий радиоактивных загрязнений. М.: ВНИИ ГОЧС, 2006. 152 с. <https://studfile.net/preview/5394883/>

УДК 614.842.8 : 612.014.4

Миршарипова З.М., Арипходжаева М.Б. д.ф.т.н.(PhD), доцент
Ташкентский государственный технический университет
имени Ислама Каримова кафедра «Безопасность жизнедеятельности»

Сулейманов А.А. д.т.н.(DSc), профессор
Научно-инновационный испытательно-исследовательский Институт
Министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан

Отабекова Л.А.

Ташкентский государственный юридический университет

ДЕТЕКЦИЯ ЗОНЫ НАИБОЛЕЕ ИНТЕНСИВНОГО ГОРЕНИЯ МУЛЬТИМОДАЛЬНЫМ АНАЛИЗОМ АСПИРАЦИОННЫХ ПОТОКОВ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СПАСАТЕЛЯ

Аннотация: Исследование направлено на решение задачи оперативной локализации зоны наиболее интенсивного горения (ЗНИГ) в условиях ограниченной видимости. В работе обосновано разграничение понятий «стационарный очаг пожара» и «динамическая ЗНИГ», характеризующаяся пространственной миграцией и нестационарностью аэродинамических параметров. Разработана мультипараметрическая математическая модель, интегрирующая векторы аспирационных потоков и показатели функционального состояния спасателя. Научная новизна заключается в использовании биометрического отклика организма в качестве верифицирующего фильтра для идентификации эпицентра горения. На основе предложенного аппарата сформирован алгоритм прогнозирования траектории ЗНИГ и оценки дистанции до неё в реальном времени. Полученные результаты обеспечивают методологическую базу для создания интеллектуальных носимых систем навигации и поддержки принятия решений при ликвидации пожаров в сложных архитектурных объектах.

Ключевые слова: Зона наиболее интенсивного горения (ЗНИГ), миграция ЗНИГ, аспирационные потоки, мультипараметрический биомониторинг, индекс функционального состояния, интеллектуальные носимые устройства, навигация спасателей, интегральный показатель риска.

Annotation: The study is aimed at solving the problem of rapid localization of the Zone of Most Intensive Burning (ZMIB) under conditions of limited visibility. The paper substantiates the distinction between the concepts of a "stationary fire source" and a "dynamic ZMIB," characterized by spatial migration and non-stationary aerodynamic parameters. A multi-parametric mathematical model has been developed, integrating aspiration flow vectors and indicators of the rescuer's functional state. The scientific novelty lies in using the body's biometric response as a verifying filter for identifying the combustion epicenter. Based on the proposed framework, an algorithm has been developed for real-time prediction of the ZMIB migration trajectory and estimation of the distance to it. The results provide a methodological basis for creating intelligent wearable navigation and decision-support systems for firefighting in complex architectural structures.

Key words: Zone of Most Intensive Burning (ZMIB), ZMIB migration, aspiration flows, multi-parametric biomonitoring, functional state index, intelligent wearable devices, rescuer navigation, integral risk indicator.

Annotatsiya: Tadqiqot cheklangan ko'rinish sharoitida eng jadal yonish zonasini (EJYZ) tezkor lokallashuv muammosini hal qilishga qaratilgan. Ishda "statsionar yong'in o'chog'i" va fazoviy migratsiya hamda aerodinamik parametrlarning nostatsionarlighi bilan xarakterlanuvchi "dinamik EJYZ" tushunchalari o'rtasidagi farq asoslab berilgan. Aspiratsiya oqimlari vektorlari va qutqaruvchining funksional holati ko'rsatkichlarini integratsiyalovchi

ko'p parametrli matematik model ishlab chiqilgan. Ilmiy yangilik yonish epitsentrini aniqlashda organizmning biometrik javobidan verifikatsiya qiluvchi filtr sifatida foydalanishdan iborat. Taklif etilgan apparat asosida EJYZ harakat trayektoriyasini prognoz qilish va unga bo'lgan masofani real vaqt rejimida baholash algoritmi shakllantirilgan. Olingan natijalar murakkab me'moriy obyektlarda yong'inlarni bartaraf etishda intellektual taqiladigan navigatsiya va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish uchun metodologik baza bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Eng jadal yonish zonasi (EJYZ), EJYZ migratsiyasi, aspiratsiya oqimlari, ko'p parametrli biomonitoring, funksional holat indeksi, intellektual taqiladigan qurilmalar, qutqaruvchilar navigatsiyasi, integral xavf ko'rsatkichi.*

Введение. Пожары в зданиях и сооружениях относятся к числу наиболее опасных видов чрезвычайных ситуаций, характеризующихся высокой скоростью развития, сложной динамикой распространения опасных факторов и значительными рисками для жизни и здоровья людей, включая аварийно-спасательные подразделения. В условиях ограниченной видимости, высокой температуры и наличия токсичных продуктов горения существенно усложняется процесс оперативного принятия решений, что повышает вероятность ошибок при ориентировании и локализации опасных зон.

Согласно данным, Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ) и международных отчётов по пожарной безопасности, ежегодно в мире происходит порядка 3–4 миллионов пожаров, приводящих к десяткам тысяч летальных исходов и сотням тысяч травм различной степени тяжести. При этом значительная доля пострадавших приходится на аварийно-спасательные подразделения, работающие в условиях высокой термической и токсической нагрузки.

По данным Национальный институт охраны труда (США), существенная часть травм пожарных связана не с непосредственным воздействием пламени, а с влиянием дыма, теплового стресса и дезориентации в задымлённой среде. В реальных условиях видимость может снижаться до 1–2 метров, а концентрация токсичных газов быстро превышает допустимые значения, что резко ограничивает эффективность традиционных методов навигации и контроля обстановки.

Особую сложность представляет задача определения зоны наиболее интенсивного горения (расстояния до ЗНИГ и направления к ЗНИГ), которая является ключевым ориентиром при принятии тактических решений. В отличие от классического представления очага горения, ЗНИГ рассматривается как динамически мигрирующая область максимальной энергетической активности, изменяющая своё пространственное положение во времени под воздействием аэродинамических и тепломассообменных процессов.

Существующие методы анализа пожарной обстановки, включая численное моделирование, сенсорные системы, тепловизионные технологии и алгоритмы интеллектуальной обработки данных, в значительной степени ориентированы на статическое или локальное

описание среды. Это ограничивает их применение в условиях высокой динамики изменения параметров и отсутствия устойчивой визуальной информации.

Дополнительным фактором является необходимость учёта физиологического состояния человека-оператора. Изменения сердечно-сосудистых и стрессовых показателей могут рассматриваться как косвенные индикаторы воздействия экстремальной среды и использоваться для повышения информативности оценки обстановки.

В этой связи актуальной является разработка интеллектуальной системы, обеспечивающей определение текущего пространственного положения ЗНИГ на основе комплексного анализа аэродинамических процессов, мультисенсорных данных и биомониторинга состояния спасателя.

Цель работы - разработка интеллектуальной системы определения текущего пространственного положения зоны наиболее интенсивного горения (ЗНИГ), рассматриваемой как динамически мигрирующая область максимальной энергетической активности процесса горения, на основе анализа аэродинамических процессов, мультисенсорных данных и биомониторинга состояния спасателя.

Обзор литературы: Современные исследования в области анализа пожароопасных процессов и управления аварийно-спасательными работами охватывают несколько взаимосвязанных научно-технических направлений, включая численное моделирование процессов горения, анализ газодинамики, разработку сенсорных систем, методы интеллектуальной обработки данных и технологии биомониторинга человека в экстремальных условиях.

Значительная часть фундаментальных исследований основана на применении вычислительной гидродинамики для моделирования процессов горения и распространения продуктов горения. Наиболее широко используемой платформой является программный комплекс «Симулятор динамики пожара», разработанный Национальный институт стандартов и технологий (США), в рамках которого реализуются численные решения уравнений сохранения массы, импульса и энергии [1]. Данный подход позволяет детально воспроизводить структуру температурных полей, динамику дымовых слоёв и распределение потоков продуктов горения. Вместе с тем его практическое применение ограничено высокой вычислительной сложностью, что затрудняет использование в задачах оперативного анализа в реальном времени.

Важным направлением исследований является изучение аэродинамических процессов, сопровождающих развитие горения, включая конвективный перенос и втягивание окружающего воздуха в зону горения, известные как захват воздуха природным пожаром (или вовлечение воздуха в зону горения). В ряде работ показано, что формирование восходящих тепловых потоков приводит к возникновению

градиентов давления, определяющих структуру движения воздушных масс и влияющих на распространение продуктов горения [2]. Однако существующие модели в основном ориентированы на открытые пожары и недостаточно учитывают сложные условия замкнутых пространств, где значительную роль играют геометрические ограничения и локальные турбулентные структуры.

Существенное развитие получили технические средства обнаружения пожара, основанные на сенсорных системах регистрации параметров среды. Такие системы включают температурные, дымовые и газовые датчики, обеспечивающие непрерывный мониторинг локальных изменений физических параметров [3,4]. Несмотря на высокую чувствительность отдельных элементов, данные системы характеризуются фрагментарностью измерений и отсутствием единой пространственно-временной модели процесса, что ограничивает их применение для анализа динамически изменяющейся обстановки.

В последние годы активно развиваются методы интеллектуальной обработки данных, включая алгоритмы машинного обучения и компьютерного зрения, применяемые для анализа изображений и видеопотоков с целью локализации зон горения [5,6]. Установлено, что данные методы эффективны при наличии устойчивой визуальной информации. Однако их эффективность существенно снижается в условиях задымления, ограниченной видимости и высокой динамики среды, характерной для реальных чрезвычайных ситуаций.

Отдельное направление исследований связано с развитием носимых систем биомониторинга человека, позволяющих регистрировать физиологические параметры, включая частоту сердечных сокращений, насыщение крови кислородом и показатели кожно-гальванической реакции [7,8]. Несмотря на широкое применение в медицине и спортивной физиологии, интеграция данных параметров в системы анализа аварийной обстановки остаётся ограниченной, поскольку отсутствует формализованная связь между физиологическим состоянием оператора и параметрами внешней среды.

В отечественных исследованиях значительное внимание уделено анализу воздушных потоков, формирующихся в зоне пожара. В работах Сулейманова А.А. аспирационные потоки рассматриваются как один из ключевых индикаторов динамики чрезвычайной ситуации. Предложены методы их измерения [9], исследованы закономерности формирования [10], а также разработаны подходы к локализации опасных зон на основе коэффициента аспирационного потока [11]. Вместе с тем данные исследования в основном ограничиваются физико-экспериментальным анализом и не рассматривают интеграцию полученных параметров в интеллектуальные системы принятия решений в реальном времени.

Анализ существующих работ показывает, что, несмотря на значительный научный прогресс в отдельных направлениях, отсутствует

комплексный подход, объединяющий физику процесса горения, газодинамические явления, сенсорные данные и физиологическое состояние человека в единую интеллектуальную систему анализа обстановки. Это определяет необходимость разработки методов и алгоритмов, обеспечивающих интеграцию разнородной информации для определения динамически мигрирующей зоны наиболее интенсивного горения (ЗНИГ) в условиях ограниченной видимости и высокой изменчивости среды.

Материалы и методы: Материалы исследования включают совокупность научных и теоретических источников, посвящённых процессам развития пожара в замкнутых помещениях, закономерностям тепломассообменных, газодинамике продуктов горения, а также физиологическим реакциям человека при воздействии экстремальных факторов среды. В качестве основы использованы современные публикации в области пожарной безопасности, теории горения и термодинамики, а также результаты исследований, описывающих изменения жизненно важных физиологических параметров человека при воздействии повышенной температуры, гипоксии и токсических газов.

Дополнительно использованы теоретические модели, описывающие формирование и развитие очага пожара как локальной зоны горения, а также концептуальные представления о зоне наиболее интенсивного горения (ЗНИГ) как области максимального тепловыделения и наибольшей концентрации продуктов горения. В исследование включены модели распространения тепловых и газовых потоков в условиях ограниченного пространства, включая процессы конвекции и диффузии, а также теоретические зависимости, характеризующие пространственное распределение температурных полей. Отдельное внимание уделено концепциям функционирования носимых интеллектуальных систем мониторинга физиологического состояния человека в условиях повышенной опасности.

Методы исследования основаны на использовании системного анализа, математического и концептуального моделирования, а также сравнительного и векторного подходов к интерпретации физических процессов. Системный анализ применён для рассмотрения процесса развития пожара как единой динамической системы, включающей взаимодействие очага пожара, зоны наиболее интенсивного горения, газодинамических потоков и объекта воздействия в лице спасателя. Такой подход позволяет выявить взаимосвязь термодинамических, аэродинамических и физиологических процессов в рамках единой структурной модели.

Методы математического моделирования использованы для описания процессов теплопереноса, конвективного движения газов, формирования температурных градиентов и пространственного распределения зоны максимальной интенсивности горения. На основе

этих моделей ЗНИГ рассматривается как область максимального градиента температурного и газодинамического поля, определяющая направление наибольшей энергетической активности.

Концептуальное моделирование применено для формирования обобщённой схемы развития пожара, включающей последовательность переходов от очага возгорания к формированию теплового поля, образованию зоны наиболее интенсивного горения и её последующей миграции под воздействием аспирационных и вентиляционных потоков. Данная модель позволяет описывать динамику перераспределения опасных зон в пространстве во времени.

Сравнительный анализ используется для сопоставления традиционного подхода, основанного на поиске очага пожара, и предлагаемой концепции, ориентированной на определение зоны наиболее интенсивного горения как более информативного навигационного ориентира в условиях ограниченной видимости. Оценка проводится по критериям информативности, устойчивости признака в условиях задымления и пригодности для оперативной навигации.

Векторный подход применяется для интерпретации ЗНИГ как пространственного поля направлений максимального градиента температуры и концентрации продуктов горения, что позволяет рассматривать её как динамический ориентир в системе пожарной обстановки.

Метод интеграции физиологических параметров используется для теоретического обоснования взаимосвязи между изменениями внешней среды и состоянием организма человека. Рассматривается возможность формирования обобщённого показателя функциональной нагрузки, отражающего уровень риска для спасателя при воздействии совокупности факторов пожара.

